

Akademik litseydagi uchrashuv

Institutdagi o'quv va ta'limiylar jarayon hamda mutaxassislik yo'nalishlari bilan tanishish bo'lg'usi talabalar uchun dasturulamaldir. Ular kelajak hayotini, o'z istiqbolini shu soha bilan bog'lanishni niyat qilarkan, demak yurtimizning taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi sari dadil va qutlug' qadamlarni tashlaganlari rost.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rektorining 2018 yil 30 martdagi "Institut tasarrufidagi akademik litsey bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish va institut faoliyati bilan yaqindan tanishtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"ga muvofiq joriy yilning 18 aprel kuni INTERNATIONAL HOUSE-TASHKENT akademik litseyida "Gidromelioratsiya" fakulteti professor o'qituvchilari B. Serikbaev, N. Egamberdiev, D. Nazaraliev, A.O'razkeldiev, D. Muqimova fakultet dekani A.Fatxulloev hamda dekan o'rinnbosari X.Tuychievlar ishtirokida uchrashuv tashkil etilib, institut haqida to'la ma'lumot berildi.



GM fakulteti dekan o'rinnbosari X.Tuychiev axboroti,

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.